

GO‘RO‘G‘LI TURKUMLI DOSTONLAR LINGVOPOETIKASI

(Tilshunoslik nuqtayi nazaridan antonimlar misolida)

Dildora Xudayberganova

Department of Computer Linguistics and Applied Linguistics,

Faculty of Uzbek Philology, Uzbekistan National University,

Tashkent, Uzbekistan

dildoraxudayberganova0707@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Go‘ro‘g‘li turkumli dostonlar badiiyati, til boyliklari, leksikasi xususida mulohazalar yuritildi. Shu bilan birgalikda lingvopoetika atamasiga ham qisqacha to‘xtalindi. Lingvopoetikaning bugungi zamonaviy tilshunoslikda o‘rganilishiga asosiy urg‘u berildi. Ushbu turkumli dostonlarning til xususiyatlari tahlil qilinarkan, ulardagi antonim so‘zlar, ularning she‘riy yoki nasriy matndagi tahliliga e‘tibor qaratildi. Antonim so‘zlarning ma‘nolari atroflicha izohlanib, gapdagi vazifasi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Lingvopoetika, antonim so‘zlar, lisoniy birliklar, lingvistika, shakl, matn, intertekstuallik.

ЛИНГВОПОЭТИКА ДАСТАНОВ ЦИКЛА ГОРОГЛЫ

(на примере антонимов с лингвистической точки зрения)

Аннотация: В статье речь идет о художественности, языковых богатствах, лексике дастанов цикла Гороглы. Вместе с этим вкратце дается определение термина "лингвопоэтика". Акцент делается на изучение лингвопоэтики в современной лингвистике. Изучая языковые особенности дастанов этого цикла, внимание уделяется антонимичным словам, их анализу в лирическом и прозаическом тексте. Подробно описав значения антонимичных слов, определяется их функция во фразе.

Ключевые слова: Лингвопоэтика, антонимичные слова, лексические единицы, лингвистика, форма, текст, интертекстуальность.

THE LINGUISTIC POETICS IN THE EPIC OF KOROGHLU

(In the example of antonyms from the point of view of linguistics)

Annotation: This article explores the literature, linguistic features, and lexicon of the Epic of Koroghlu. Additionally, a brief introduction to the concept of linguistic poetics is provided. The focus is on the contemporary understanding of linguistic poetics in the field of language studies. The linguistic characteristics of the Epic of Koroghlu are analyzed, paying attention to the analysis of antonym words used in their poetic or narrative texts. The meanings of the antonym words are explained, and their role is identified within the context of the text.

Key words: Linguopoetics, antonym words, linguistic units, linguistics, form, text, intertextuality.

Til – jamiyat, millatning o‘zligini namoyon qiluvchi ko‘zgusi hisoblanadi. Xalq qalbiga yo‘l uning o‘z ona tilini bilishi, uning urf-odat, milliy qadriyatlariga nisbatan hurmat va e‘tibori, sodiqligidan boshlanadi. Zero, Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Biz milliy ma’naviyatni har

tomonlarga yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi".

Jumladan, bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan ma'lum bir asarlar lingvopoetik jihatdan tadqiqqa uchragan. Tadqiqotchi asarni tadqiq qilishdan oldin lingvopoetika atamasini anglab yetishi, uning ma'lum bir asarga ta'sirini o'rganishi lozim. Xususan, tadqiqotchilar fikriga ko'ra lingvopoetik tahlilning tamalida ayni poetik aktuallashgan – poetik mazmun bilan yukungan til birliklarini aniqlash va ularni tegishli tarzda baholash tamoyili turmog'i maqsadga muvofiqdir. Bunday tahlil ijodkorning tilimizning tuganmas boyligi imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahoratini ko'rsatish barobarida badiiy niyat xizmatidagi birliklarning butun mohiyatini ochishga, xolis baholashga ko'maklashadi. Ayniqsa, bunday tahlil ulkan so'z san'atkorlarining asarlari asosida olib borilsa, badiiy til mahoratidagi ibratli jihatlar baralla namoyon bo'ladi.

Haqiqatdan ham, ma'lum bir asar tilidagi poetik birliklarini tahlil qilish uchun ham mahorat, ham poetik bilim lozim. Asarga oid ma'lumotlar poetik birliklarni ishlatish bilan chambarchas hossani tashkil qiladi. Badiiy asarda ko'p ishlatiladigan poetik birliklarda falsafiy figuralar, lisoniy birliklar o'rin olgan.

Badiiy asar tiliga kategorial yondashuvning shakllanishi, badiiy so'zni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida o'rganishga harakat badiiy asarni estetik va falsafiy nuqtayi nazardan tushunish uchun asos bo'ldi. Jumladan, G.E.Lessing, F.Shiller, Gumboldt, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.Y.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba ishlari o'rganildi, muhim ilmiy xulosalaridan foydalanildi. A.Xolodovichning "Adabiy til uslubshunosligi", "Poetikada lisoniy usul" asarlarida, nemis olimi E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi tushunchalarida, fransuz tilshunoslari D.Delas va J.Fiyollarning lingvistika va poetika bo'yicha yangi qo'llanmalarida, Y.B.Artemenkoning lingvofolkloristika bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida lingvopoetikaning filologiya ilmidagi alohida fan sifatida o'rganilishi yuzasidan qarashlar bayon qilingan. Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiqi bilan shug'ullangan olimlardan biri A.Lipgartdir. Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari, tadqiqiy vazifalari bilan xarakterlanadi. Xususan, adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalari lingvopoetik xususiyatlar nuqtayi nazaridan kuzatib, o'rganib borish, bu yo'nalishdagi tahlil, talqin, baholashni izchil yo'lga qo'yish bugungi o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir.

Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida to'liq tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

1. Shakl va mazmun birligi asosidagi yondashuv: Bu kabi yondashuvda shakl va mazmun izchil bir-birini to'ldirib turishi lozim.
2. Makon va zamon birligidan kelib chiqish, ya'ni matnda berilgan makon va zamon doimo bir xil vaqt va muddatda bo'lishi lozim.
3. Umumxalq tili va adabiy til munosabati asosida baholash: standart til doiralaridan chiqmagan holatda tilga umumiy baho berish.

4. Badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv; matnda ishlatiladigan unsurlardan badiiy-estetik birlik hosil qila olish.
5. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash.
6. Badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash.
7. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash.

Barcha badiiy asarlarda yuqoridagi xususiyatlarning bo'lishi bu asarning zamon ruhiga mos va xos yo'sinda yozilganligidan, asarning, asar matnining orginalligidan, badiiy tiplarning asarda to'la yaratilganligidan dalolat beradi.

Biz bugun tahlil qilmoqchi bo'lganimiz – Go'ro'g'li turkumli dostonlar hisoblanadi. Biz bugun Go'ro'g'li turkumli dostonlarning badiiyati bilan birga lingvopoetikasini tahlil qilmoqchimiz. Bizga ma'lumki, "Go'ro'g'li" turkumli dostonlar fanda ikki katta tarmoqqa bo'linadi. Ularning biri Zakavkazye versiyasi deyilsa, ikkinchisi Yaqin sharq versiyalari deb ataladi. Birinchi turga ozarbayjon, arman, gruzin, turk va boshqa millatlar orasida yashayotgan turkum dostonlar kirsas, ikkinchisiga o'zbek, qozoq, qoraqolpoq, turkman, tojik va boshqa Markaziy Osiyo xalqlari orasida yashab kelayotgan "Go'ro'g'li" bilan bog'liq asarlar kiradi. Garchi ikki katta tarmoqdagi asarlar "Go'ro'g'li"ning atrofida voqe bo'lsa-da, ammo asarning epik ko'lami, voqealar rivoji kabi jihatlar bilan bir-biridan jiddiy farq qiladi. O'zbek "Go'ro'g'li"si boshqa xalqlar "Go'ro'g'li"sidan turkumga birlashgan dostonlarning hajman kattaligi (monumentalligi) va xilma-xilligi, turkumlashishning murakkab jihatlariga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Hatto o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan "Go'ro'g'li" turkum asarlari ham ikki katta versiyaga bo'linadi. Bu versiyalardan biri Xorazm "Go'ro'g'li" dostonlari bo'lib, ular turkman versiyasiga juda o'xshash, Ozarbayjon "Ko'ro'g'li"siga ancha yaqin turadi. Turkumga birlashgan Xorazm dostonlari o'n uchta-o'n to'rtta bo'lib, syujeti, ijodiy uslubi, va kuylanish jihatidan jiddiy tafovutlarga ega, ularning hajmi nisbatan qisqa. O'zbekistonning Xorazmdan bo'lak yerlarida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlari ham alohida mustaqil bir versiyani tashkil etib, hajmining kattaligi, monumentalligi bilan ajralib turadi.

Hodi Zarif Go'ro'g'li shaxsi va u haqdagi dostonlar haqida aytib o'tarkan, "...ularning ba'zilar uzoq tarixda O'rta Osiyoda islom dini tarqalishidan burungi zamonlarda maydonga kelgan" degan xulosani o'rta tashlaydi. Ammo "Malika ayyor" dostonidagi so'zboshisida "Go'ro'g'li" dostonlarining yaratilishi VIII – XII asrlarga borib taqaladi degan xulosani beradi. V.M.Jirmunskiy bilan hammualliflikda yaratgan monografiyasida "Go'ro'g'li" turkum dostonlari tarixini ozarbayjon folklor qahramonining yon xalqlarga ko'chganini ta'kid etadi. Olim "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi ko'plab dostonlarni yozib oldi hamda nashr ettirdi. Xususan, "Yakka Ahmad", "Intizor", "Malika ayyor", "Xoldorxon", "Zulfizar bilan Avazxon" kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Tadqiqotlar davomida guvoh bo'lamizki, Go'ro'g'li turkumli dostonlarda til birliklarining ko'pchiligini ko'rishimiz mumkin.

Til voqelikni ifodalash uchun ishlatiladi. Tilning qay darajada ekanligini baholash esa insonning tafakkuriga bog'liq. Tafakkur vositasida turli birliklar ma'nosini ifodalash uchun biz antonim, omonim, sinonimlardan foydalanamiz. Go'ro'g'li turkumli dostonlarda antonim so'zlardan ko'p foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Qarama-qarshilik hodisasi tilshunoslikda,

asosan, antonimiya termini bilan izohlanadi. “Antonimiya – mantiqan har biri isbotlanadigan ikki qonun, mulohaza yoki xulosa o‘rtasidagi ziddiyat”.

*G‘oyibona har saharlar uyg‘ongan,
Issiq joydan turib beshik tayangan,
Ikkovimiz tor to‘shada talashgan,
Bir emchakdan sut talashib emishgan,
Akam, deb qolgandi sho‘rli jigirim,
Men yiglamay kim yig‘lasin, bo‘yingdan?
Men kulmay kim kulsin bo‘yingdan?*

Ushbu misralarda *yig‘lamasin, yig‘lasin, kulmay-kulsin* so‘zlari orqali aniq bo‘lgan antonimlik ifodalangan. *Yig‘lamay-yig‘lasin, kulmay-kulsin* so‘zlari fe‘l asosida yuzaga kelgan antonimlik hisoblanadi. Bilamizki, butun dunyo o‘zaro bir-biriga qarama-qarshi munosabatlardan iborat sistemaga ega. Ya‘ni hodisalar o‘rtasida oppozitsiya mavjud. Qarama-qarshilik borliqdagi asosiy mezonlardan bo‘lib, olamni anglashda mazkur kategoriyaning o‘rni beqiyos. Falsafiy nuqtayi nazardan har qanday hodisaning o‘rganilishida uning qarama-qarshi tomoni ham ahamiyatga ega.

Tilda zid ma‘noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta‘sirchanligini ta‘minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. “Shoir uchun juda zarur bo‘lgan san‘atlardan biri tazoddir. Bu san‘at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takaju deb ham nomlanadi. Bu san‘atda, badi‘shunoslarning aytishicha, zid ma‘noli so‘zlardan foydalaniladi. Yevropa filologik an‘anasida bu san‘at “antiteza” deb yuritiladi. Quyidagi baytda mard-nomard sifatleri orqali antonimik ma‘no ifodalangan. Mard-nomard insonga xos xususiyatlardan biri bo‘lib, dostonida qiyomatgacha mardning savashi bo‘lishi, maydondan qochgan kishi nomard bo‘lishi ilgari surilgan. Asadning maydon tomon borishiga da‘vat qilingan. Ushbu misralarda zid ma‘noli so‘zlardan foydalanish orqali dostonning ifodaliligi, ta‘sirchanligi oshirilgan.

*Maydonda kesilar dushmanning boshi,
Qiyomatcha bo‘lar mardning savashi,
Bu maydondan qochgan nomardning ishi,
Jurgin Asad, niyat maydon, borayik!*

Endi esa navbatdagi baytga e‘tibor qaratsak. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, antonimlik, asosan, otlar tabiatida uchraydi. Otlar o‘rtasidagi ma‘naviy ziddiyatlar talqini xalqimizning madaniyati, ma‘naviyati, dunyoqarashi, e‘tiborli jihati qadriyatlar tizimi bilan bog‘liq. Bu yerda faqir-shoh so‘zlari orqali zid ma‘nolilik vujudga kelgan.

Faqir – (arabcha: فقير — kambag‘al) moddiy yoki ma‘naviy jihatdan muhtoj odam. Kambag‘al (fuqaro)ga, ya‘ni ijtimoiy jihatdan nochor odamlarga g‘amxo‘rlik qilish zarurligi Qur‘oni karimda, sunna va pandnoma asarlarida alohida ta‘kidlanadi. Zohidlik va so‘fiylik “kambag‘allik” (“faqr”, “fuqr”)ni keng targ‘ib qilgan. “Faqir” deyilganda “darvish” va

“so‘fiy”lar tushunilgan. Shoirlar, mualliflar, xattotlar ham o‘zlarini kamtarlik bilan Faqir deb atashgan.

Shoh (forscha: شاه) – hukmdor, podshoh nomi. Baytda Xudo buyurgan ishga faqir ko‘nishi, itoat qilib amal qilishi haqida aytilgan. Faqir kishi hammasini taqdirdan ko‘radi deydi.

*Xudo qilgan ishga **faqir** ko‘nadi,
Bedov minib, endi, beklar jo‘nadi.
Qalandarlar unga hamroh bo‘lmadi,
Harna bo‘lsa taqdiridan ko‘radi.
Eshitingiz bunday **shohning** so‘zini,
Qumlarda qichaydi aspi tozini.
Izlab chiqqan Qosimshohning qizini,
Malikaday uning sarvinozini.*

Kuzatishlarimiz davomida, asar davomida quyidagi antonimlarni kuzatishimiz mumkin: *yaxshi-yomon, uzoq-yaqin, rost-yolg‘on, davlatli-davlatsiz, farqli-farqsiz, kular-kulmas.*

“Gajdimbek otini minib, choshkada bozorga bordi. Bozorni tomosha qilsa, **yaxshi-yomon**, sarti-somon, chirik-chopon, olvingan-chuvringan, majlis qurilgan, o‘rdada bozor qurilgan”.

Gajdimbekni hol-ahvoli tasvirlangan ushbu nasriy bayonda *yaxshi-yomon* so‘zlari orqali antonimlik ifodalangan. *Yomon-yaxshi* antonim juftligi “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

Yomon 1 – a‘lo;

Yomon 2 (salbiy sifat va xususiyatlarga ega bo‘lgan, salbiy baholanadigan, talabga javob bermaydigan);

Yaxshi 1 – (ijobiy sifat va xususiyatlarga ega bo‘lgan, ijobiy baholanadigan, talabga javob beradigan);

Yomon 3 (yomon maqsad);

Yaxshi 2 (yaxshi maqsad);

Yomon 4 (yomon hulq, yomon fe‘l-atvor);

Yaxshi 3 (yaxshi xulq, yaxshi fe‘l-atvor).

Ko‘rinadki, Go‘ro‘g‘li turkumli dostonlarda antonimlarning ko‘plagan shaklini kuzatishimiz mumkin. Yuqoridagi antonimlar gap ma‘nosiga ulkan ta‘sir ko‘rsatgan. So‘zlarning shakliy xususiyatlari semantik taraqqiyotga doir bilimlarimizni yanada boyitish uchun imkoniyat yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – B.8.

2. Yoʻldashev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol.fan.dokt...dis. – Toshkent, 2009. – B.3.
3. Zebo Mirzo sheʼriyatining lingvopoetikasi. H. Niyozova. Ijodkor oʻqituvchi. 2023. 33-son. – B.115.
4. Eshboyeva Tursuntosh Soxatmamatovna, LINGVOPOETIKA TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIKDA OʻRGANILISH TARIXI. Toshkent. 2001. – B.17.
5. Раззоков Х. ва бошқ., Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: “ЎҚИТУВЧИ”, 1980. – Б.229-230.
6. Исабеков Б. Ҳозирги ўзбек тилида лексик антонимия: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1973.
7. Goʻroʻgʻli (Dostonlar). – Toshkent: “Choʻlpon”, 2017. – B.16.
8. Qurbonova M., Yoʻldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent, 2014. – B.60.
9. Раҳматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 75, 180.
10. wikipedia.uz
11. Aripov, M., Sharipbay, A., Abdurakhmonova, N., Razakhova B.: Ontology of grammar rules as example of noun of Uzbek and Kazakh languages. In: Abstract of the VI International Conference “Modern Problems of Applied Mathematics and Information Technology - Al-Khorezmii 2018”, pp. 37–38, Tashkent, Uzbekistan (2018)
12. Abduraxmonova, N. Z. "Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref." (2018).
13. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016;2 (38):12-7.
14. Abdurakhmonova N, Tuliyeu U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/Foreign Philology: Language. Literature, Education. 2018(3):68.
15. Abdurakhmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL). 2019;6(1-2019):131-7.
16. Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03):89-100.
17. Kubedinova L. Khusainov A., Suleymanov D., Gilmullin R., Abdurakhmonova N. First Results of the TurkLang-7 Project: Creating Russian-Turkic Parallel Corpora and MT Systems. Proceedings of the Computational Models in Language and Speech Workshop (CMLS 2020) co-located with 16th International Conference on Computational and Cognitive Linguistics (TEL 2020) .2020/11: 90-101
18. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. InProceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.